

HOZIRGI KUNDA O‘ZBEKISTONDA BO‘LAYOTGAN O‘ZGARISHLAR VA MEDIA TA‘LIMGA QARATILGAN E‘TIBORNING ZAMONAVIY TA‘LIMDAGI AHAMIYATI

Jumayeva Xolida Farhodovna

Navoiy arxitektura va qurilish texnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hozirgi kunda O‘zbekistonda bo‘layotgan o‘zgarishlar va media ta‘limga qaratilgan e‘tiborning zamonaviy ta‘limdagi ahamiyati tahlil etilgan. Qolaversa, O‘zbekistonning demokratiya sari taraqqiyotida, fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokining faollashuvida media va axborotning zaruriyati va ahamiyati haqida ilmiy nazariy qarashlar berilgan. Shuningdek mediata‘limning yoshlar ta‘limiy-tarbiyaviy jarayonidagi ahamiyati, mediata‘limning o‘ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish jarayonida qo‘llaniladigan usullar va ularning samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: media, OAV, mediamadaniyat, mediamatn, mediaresurs, media matn, media ta‘lim, media o‘rganish, media savodxonlik, media makon.

Kirish

Ma‘lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So‘nggi yillarda ta‘lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta‘lim tizimida islohotlar va amaliy chora-tadbirlar judayam keng ko‘lamli amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta‘kidlaganlaridek: Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta‘lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda ta‘lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.¹

Bugungi kunda endi shakllanayotgan yoshlarni turli axborotlarning salbiy ta‘siridan himoya qilish va ularning sog‘lig‘ini asrash muammosi dunyodagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarga atrofni o‘rab turgan olam haqidagi ma‘lumot beruvchi asosiy manbalarga esa, matbuot, televidenie, radio, global kompyuter tarmoqlari va boshqalar kiradi. Bugungi yosh avlod ongiga ulkan axborot oqimi ta‘sir ko‘rsatmoqda, uni majoziy ma’noda “axborot yomg‘iri” yoki “axborot

¹ Sh.M. Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan

seli” deb atash mumkin. Bugungi axborot makonidagi kutilmagan obrazlar, zamonaviy, yorqin tasvirlar, syujetlar va xatti-harakatlar xali ongi yetarli darajada shakllanmagan yoshlarni albatta ko‘proq o‘ziga jalb qiladi, chunki yosh xususiyatlari va hayotiy tajribaga ega bo‘lmaganligi sababli, bola ulkan ma’lumotlar oqimini qabul qilish va tushunish uchun hali tayyor emas hisoblanadi.

Asosiy qism

Yurtimizda bugungi kunda eng dolzarb muammo va yechimlarni qamrab olgan 2030-yilgacha mo‘ljallangan konseptsianing qabul qilinishi va amalga oshirilishi yurtimizda ta’lim sohasida ulkan o‘zgarishlar amalga oshishiga olib keladi. Ta’lim sifati O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Kontsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks choratadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida: Oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar, Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari, Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy - tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ma’naviy - ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy - texnik ta’minotini mustahkamlash, oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash, konseptsiani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar xususida keng qamrovli masalalar qamrab olingan.

O'zbekiston jahon axborot makoniga shiddat bilan integratsiyalashmoqda. Mamlakat fuqarolari bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan to'plangan ma'lumot va axborotlarni cheksiz ravishda olish imkoniyatiga ega. Biz oladigan va foydalanadigan axborotning sifati bizning hayotiy tanlovimizga, ijtimoiysiyosiy faoliyatimizga katta ta'sir ko'rsatadi. Bugun axborot muhitidagi islohotlar, matbuot bilan hamkorlik “munosabatlarining ustuvor jihatlarini to'g'ri belgilash”ga va ommaviy axborot vositalari (OAV) “faoliyati ustidan nazorat qilishning iqtisodiy mexanizmlari, axborot manbalarining yopiqqligini, shuningdek, tahririyatlarga hokimiyat organlari va ma'muriy tuzilmalar tomonidan bo'layotgan ma'lum darajadagi bosimlarni bartaraf qilish”ga qaratilgan. Shu o'rinda parlament tomonidan “ijro hokimiyati organlari faoliyatining, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning, davlatning ichki hamda tashqi siyosatining ochiqqligi va oshkorligi”²ni ta'minlaydigan bir qator qonunlarni qabul qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2014 yil 5 may kuni respublikamizda “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun milliy axborot makonining yanada shaffof bo'lishiga, uning kengayishiga hamda global axborot makonida O'zbekiston imijining, milliy kontent mazmuni, shakli va usullarining boyishiga xizmat qilishi shubhasiz.

So'nggi yigirma yil davomidagi texnika va texnologiyalar taraqqiyoti OAV, axborot manbalari va axborot yetkazib beruvchilari (kutubxonalar, arxivlar, Internet va b.) faoliyatining beqiyos kengayishiga olib kelib, fuqarolarga uning ulkan hajmidan foydalanish va almashinish imkonini yaratdi. Pirovard natijada, fuqarolar ushbu axborotning ishonchli ekanligini baholash, o'z fikrini erkin aytish borasidagi huquqlarini to'laqonli amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Shuning uchun ham kun tartibiga fuqarolarning media va axborot savodxonligi(MAS)ni ta'minlashdek dolzarb masala ko'ndalang qo'yilmoqda. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida ko'rsatilishicha, “Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda etish huquqiga ega; ushbu huquq o'z e'tiqodiga to'siqsiz tarzda sodiq bo'lish hamda axborot va g'oyalarni har qanday vositalar bilan har qanday davlat chegaralaridan qat'iy nazar izlash, olish va tarqatish erkinligini o'zida mujassam etadi”. Mazkur huquqning amalga oshishi mediata'lim bo'yicha 1982-yilda qabul qilingan Gryunvald deklaratsiyasi bilan ham belgilanadi. Unda siyosiy va ta'lim tizimlari fuqarolarda kommunikatsiya fenomeni tushunchasini rivojlantirishda va ularning OAV va (an'anaviy va yangi) kommunikatsiyalarda ishtirok etishini rag'batlantirish ko'rsatib o'tilgan. Mazkur holat 2005-yilda qabul qilingan

² Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 12-noyabr. // Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – O'zbekiston, 2011.- 73-74-b.

Aleksandriya deklaratsiyasida o'z rivojini topib, unda media va axborot savodxonligi insonning butun hayoti davomida oladigan ta'lim asosi sifatida belgilab berilgan. Deklaratsiya axborotni samarali ravishda izlash, baholash, undan foydalanish va barcha sohalarida shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy va ta'lim maqsadlariga erishish uchun uni yaratish imkoniyatlarini taqdim etishda MASning ahamiyatini ifoda etadi. MAS raqamli axborot va raqamli texnologiyalar dunyosida barcha xalqlarning ijtimoiy faolligini oshirishga undovchi insonning asosiy huquqlaridan biridir.

Media va boshqa axborot xizmatlari (kutubxonalar, arxivlar va Internet) butun dunyoda mavjud axborotning to'laligidan kelib chiqqan holda insonlarga qaror qabul qilishga ko'mak beradi. Bundan tashqari, ular jamiyat o'zi haqidagi haqiqatni bilishi, aholi bilan bo'ladigan muloqotni qo'llab-qo'vvatlovchi va shu orqali u bilan birlashgan holda maqsad sari borishi mumkin bo'lgan vositadir. MAS insonning raqamlashtirilgan axborot va raqamli texnologiyalar olamidagi, barcha xalqlarning ijtimoiy faolligini oshirishga ko'mak beruvchi olamdagi bazaviy huquqi hamdir.

Media va boshqa axborot xizmatlari (kutubxonalar, arxivlar va Internet) barcha mintaqalarda axborot to'laqligini nazarda tutgan holda insonlar qaror qabul qilishida muhim vosita sifatida tan olingan. Bundan tashqari, ular hokimiyat o'z faoliyati xususidagi haqiqatni bilishida, aholi bilan muloqotni qo'llab-quvvatlashida va bu orqali belgilangan maqsadlar tomon borishida kuchli vosita rolini o'ynaydi.

Ommaviy kommunikatsiya va axborot kanallari insonning hayoti davomida bilim olishga katta ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ham nafaqat bo'lajak jurnalistlar, balki barcha fuqarolar ham media va boshqa axborot xizmatlari (kutubxonalar, arxivlar, Internet va boshq.) qay tarzda ishlashi va ularni qay tarzda to'g'ri baholash lozimligini bilishi zarur. Media va axborot savodxonligining vazifasi esa aynan ushbu bilimlarni foydalanuvchilarga yetkazib berishdan iboratdir.

Media va axborot savodxonligi o'zida quyidagi asosiy tushunchalarni qamrab oladi: **demokratiya an'analari rivojlanayotgan jamiyatda media, kutubxona, arxiv va boshqa axborot xizmatlarining funksiyalari; OAV va axborot xizmatlari mazkur funksiyalarni samarali ravishda amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar; shuningdek, taqdim etilayotgan kontent va xizmatlar vositasida mazkur funksiyalarni bajarilish sifatini baholash usullari.** Mazkur tushunchalar, o'z navbatida, foydalanuvchilarga kommunikatsiya va axborot kanallari bilan ongli ravishda o'zaro munosabat o'rnatishga imkon yaratadi. Media va axborot savodxonligi orqali olinadigan bilim fuqarolarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishi lozim bo'lib, ularga media va boshqa axborot yetkazib beruvchilardan yuqori sifatli xizmat ko'rsatilishini talab qilish uchun zamin yaratadi.

Boshqa mediaga nisbatan OAV mazkur tizimda kattagina joyni egallaydi. Ular serqirra axborot oqimlari tizimini o'zida namoyon etadi. Alohida institut sifatida OAV o'ziga xos funksiyalarni amalga oshiradi. Global axborot jamiyati shakllanayotgan

davrd media va axborot savodxonligi milliy taraqqiyot, har bir fuqaroning mamlakat kelajagi uchun ijtimoiy faolligi va mas’uliyati oshishini, aholining demokratlashtirish jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlovchi muhim omildir.

Bugungi amaliyot shuni ko’rsatmoqdaki, pedagoglar va ota-onalar tomonidan olib boriladigan turli xil ta’limiy va tarbiyaviy ta’sirlarni yoshlar turlicha qabul qilishlari mumkin: ularga xushmuomalalik bilan muloqot qilish natijasida paydo bo’ladigan ijobiy munosabatlardan so’ng ular o’zining xatti-harakati haqida oylaydi va faollik ko’rsatib, o’zini takomillashtirish va rivojlantirishga intiladi. Ana shunda bunday tarbiya usuli haqiqatan ham uning shaxsiy ijobiy hususiyatlarini shakllanishida hal qiluvchi rol oynaydi. Agar ota-onalar, tarbiyachilar va pedagoglarning tarbiya usuli ular bilan yoshlar o’rtasida ijobiy munosabat o’rnatmasa, bu usul yoshlarning psixologik rivojlanishida ijobiy rol oynamaydi va hatto ular tomonidan ma’lum bir qarshilikka ham uchrashi mumkin.

Ko’rinib turibdiki, o’quvchi tarbiyaviy ta’sirning nafaol ob’ekti hisoblanmaydi. Ularda bunday ta’sirlarga nisbatan ichki pozitsiya shakllanadi, ularda ushbu ta’sirlarga nisbatan o’zini takomillashtirish (rivojlantirish), o’z ustilarida faol ishlashlari yoki passiv bo’lib qolishlari mumkin.

Shu nuqtai nazardan ta’kidlash mumkinki, ta’lim-tarbiya shaxsning kamol topishida, uning o’z ustida ishlashidagi faolligini ichki jihatdan rag’batlantirishga ota-onalar, tarbiyachi hamda pedagoglar tomonidan ijobiy ta’sir ko’rsatgandagina bu usullar hal qiluvchi rol oynaydi. Aynan quyidagi hususiyatlar ya’ni o’sib kelayotgan shaxsning faolligi va shaxsiy intilishi, o’zini takomillashtirishga bo’lgan istagi, pirovardida uning shaxsiy rivojlanishini belgilaydi.

Yoshlarning darsdan tashqari mashg’ulotlarida mediata’limdan foydalanishning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyati shundaki, ularga o’zini namoyon qilish uchun qo’shimcha shart-sharoitlar yaratishda ham hisoblanadi, chunki hamma bola ham o’qish jarayonida o’zini namoyon qila olmaydi. Bunday sabablar sirasiga yoshlarda etakchilik, turli qobiliyatlarini va o’zlashtira olmaslik kabi muammolarni ko’rsatish mumkin. Shu sababli, ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan turli sinfdan tashqari mashg’ulotlarda yoshlar o’zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy motivlar va ehtiyojlarlarini amalga oshiradigan ulkan imkoniyat bilan ta’minlanadilar. Zamonaviy, shaxsga yo’naltirilgan yondashuvlarni to’g’ri tanlash ta’lim-tarbiya vazifalarini yanada to’liq amalga oshirishga yordam beradi. Bu jarayonda eng ahamiyatli jihatlardan biri shundaki, yoshlarning o’zlari ularni rivojlantirishning yangi shakllarni taklif qilishlari ham mumkin.

Yoshlarni medialardan to’g’ri foydalanishga o’qitishdagi samarali uslubiy usullarini quyidagi asoslar boyicha tasniflash mumkin:

1. Tarbiyaviy ishlar turlari boyicha (axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, oilaviy va boshqalar). Bu tasnifni fin olimi Z. Tell ta’biri bilan aytganda,

“Mediaxabarlari fanlararo va ko‘p tarmoqli xususiyatga ega bo‘lishi” bilan murakkablashadi. Masalan, maktab o‘quvchilarini axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalarini hal qilish maqsadida medianing badiiy yoki multfilmlarni namoyish etish orqali ulardagi estetik tarbiya imkoniyatlarini kengaytiramiz, chunki biz san‘at asarini axborot manbai deb hisoblaymiz.

2. Global kompyuter tarmoqlari va boshqa ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar bo‘yicha. Axborotdan foydalanishning turli xil imkoniyatlarini izlash va joriy etish yoshlarga media sohasi bilan yaxshiroq tanishishiga va ta‘lim muammolarini samarali hal qilish imkonini beradi.

Media ta‘limning tarbiyaviy salohiyatidan foydalangan holda, yoshlar ongni media vositalari tomonidan manipulyatsiya qilinishidan himoya qilish va ularning bu boradagi qobiliyatini rivojlantirish maqsadida samarali zamonaviy usullar ishlab chiqilmoqda, jumladan:

- talabalarni media vositalar va muassasa kutubxonasidan axborotlarni axborot markazi sifatida mustaqil izlab topish va foydalanish qobiliyatini shakllantirish,

- muammoli vaziyatdan chiqish yo‘lini bir necha usulda topish, mavjud vaziyatni modellashtirishga o‘rgatish, ya‘ni, yoshlarni vaziyatdan chiqish yechimning alternativ tanlovini to‘g‘ri topish vazifasini oldiga qoyadi. Ushbu xarakterlik usulini tanlash yoshlarning o‘zida qoladi, lekin shu bilan birga u o‘z harakatlarini asoslashi lozim bo‘ladi;

- ijtimoiy tarmoqlar, gazeta va jurnallarda o‘qilgan maqolalar, tele va radio hikoyalar muhokamasi;

- turli xil media vositalaridan foydalangan holda o‘z ma‘lumotlarini tayyorlashga o‘rgatish. Bunda media usullaridan qaysi birini tanlash unchalik muhim emas (oddiy qog‘oz varag‘idan Internetdagi veb-saytgacha): chunki zamonaviy yoshlar murakkab texnik vositalardan foydalanishni afzal ko‘rishadi, ya‘ni, kameralar, videokameralar, kompyuterlar, telefonlar. Ushbu zamonaviy texnikalardan foydalanishda topshiriqni shunday tuzish maqsadga muvofiq bo‘ladiki, u fanni o‘qitish va tarbiya vazifalarini o‘zida mujassamlashtirsin;

- bir vaqtning o‘zida ta‘limiy va tarbiyaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan turli xil uslubiy usullardan foydalanishga imkon beradigan Internetning axborot resurslaridan foydalanish.

Yoshlarning Internetga qiziqishi to‘rtta asosiy omil tufayli rivojlanadi deya hisoblanadi:

- turli xildagi ma‘lumotlarga kirishga imkoniyatning mavjudligi;
- keng interaktivlik, doimiy muloqotning mavjudligi;
- o‘zi haqidagi ma‘lumotlar ustidan shaxsiy nazorat, ma‘lum bir “obraz”ni yaratish imkoni;
- uzatilayotgan ma‘lumotlarning anonimligi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mediata’lim jarayonida yoshlarni Internet bilan muloqot jarayonida xavfsizlikni ta’minlashning muhim qoidalari bilan tanishtirish zarur: barcha shaxsiy ma’lumotlarni (ismi, manzili, telefon raqami, elektron pochta manzili, ota-onalarning shaxsiy ma’lumotlari) oshkor qilmaslik; media tarmoqlardagi begonalarga ishonmaslik: Internetda har kim o’zini kimligini ochiq ko’rsatmasligi, aslida kimligini sir tutishi mumkin va hokazo.

Mediata’limning asosiy maqsadi sifatida yoshlarning mediasavodxonligini oshirish, ularda mediamadaniyatini shakllantirish, medialarning salbiy kontentlaridan himoya qilish, manipulyatsiya qurboniga aylanib qolishiga yo’l qo’ymaslik, shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va zamonaviy dunyoda axborotlarni ongli ravishda izlash, talqin qilish va qo’llash, dunyoqarashini kengaytirish orqali kommunikativ ko’nikmalarini va mediakompetensiyalarini rivojlantirish vazifalarni ta’limning oldiga qo’yishdir. Buning uchun xar bir ta’lim maskanlarida bosqichma-bosqich mediata’limni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyevning O’qituvchi va murabbiylar kuniga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.
2. Educating for the Media and the Digital Age//International Conference. - Vienna: UNESCO, 1999, p.273- 274
3. Cynthia Vinney. „Very well mind“. What Is Media Literacy? 2022
4. Kastels M. Informatsionnaya epoxa: ekonomika, obshestvo i kultura. M.: GU VSHE, 2000.
5. Kirillova N. Mediakultura: ot moderna k postmodernu. M., 2005.
6. Ponimaniye media. M.; Jukovskiy, 2003.
7. Sadikovich, H. M. THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE MILITARY SPECIALISTS IN THE UNIVERSITY.
8. Umarova Z.A. Raqamli mediata’lim muhiti: mediaresurslar va ularning roli /Markaziy osiyo ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, №1, 2020. – 65-72 b.
9. Usov Y.N. Ekranniye iskusstva — noviy vid mishleniya // Iskusstvo i obrazovaniye. 2000. - №3. – S. 48-69.